



Utkirbek MUXTAROV,

PhD, dotsent, Andijon davlat pedagogika instituti, Andijon, O'zbekiston
E-mail: muxtarovutkir1984@gmail.com, ORCID: 0009-0001-5057-4905

PhD O.G'ulomjonov taqrizi asosida

ISHSIZLIKNING SHAXS RUHIY SALOMATLIGI VA OILAVIY MUNOSABATLARGA TA'SIRI: IJTIMOY-FALSAFIY TAHLIL

Аннотация

Ushbu maqolada ishsizlikning shaxs ruhiy salomatligi, oilaviy munosabatlar va ijtimoiy o'zini anglashga ko'rsatadigan ta'siri ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Ishsizlikning psixologik oqibatlarini o'rganishning tarixiy-nazariy asoslari, xususan, Buyuk Depressiya davridagi klassik tadqiqotlar hamda zamonaviy xorijiy izlanishlar misolida ko'rib chiqilgan. Shuningdek, ishsizlikning ruhiy salomatlik va oilaviy barqarorlikka ta'siriga oid empirik dalillar tahlil qilinib, Yangi O'zbekiston sharoitida ushbu oqibatlarni yumshatishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik yondashuvlar bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Ishsizlik, ruhiy salomatlik, oilaviy munosabatlar, ijtimoiy-psixologik oqibatlar, ekzistensial inqiroz, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash.

ВЛИЯНИЕ БЕЗРАБОТИЦЫ НА ПСИХИЧЕСКОЕ ЗДОРОВЬЕ ЛИЧНОСТИ И СЕМЕЙНЫЕ ОТНОШЕНИЯ: СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация

В данной статье с социально-философской точки зрения анализируется влияние безработицы на психическое здоровье личности, семейные отношения и социальное самосознание. Рассмотрены историко-теоретические основы изучения психологических последствий безработицы, в частности, на примере классических исследований периода Великой депрессии и современных зарубежных исследований. Также проанализированы эмпирические данные о влиянии безработицы на психическое здоровье и семейную стабильность, разработаны рекомендации по социально-психологическим подходам, направленным на смягчение этих последствий в условиях Нового Узбекистана.

Ключевые слова: Безработица, психическое здоровье, семейные отношения, социально-психологическая безопасность.

THE IMPACT OF UNEMPLOYMENT ON INDIVIDUAL MENTAL HEALTH AND FAMILY RELATIONS: SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS

Annotation

This article analyzes the impact of unemployment on an individual's mental health, family relationships, and social self-awareness from a socio-philosophical perspective. The historical and theoretical foundations for studying the psychological consequences of unemployment are examined, in particular, through the example of classical research from the Great Depression period and modern foreign research. Empirical evidence regarding the impact of unemployment on mental health and family stability was also analyzed, and recommendations were developed for socio-psychological approaches aimed at mitigating these consequences in the context of New Uzbekistan.

Key words: Unemployment, mental health, family relations, socio-psychological white.

Kirish. Mehnat inson hayotining nafaqat moddiy, balki ma'naviy-ruhiy asosini ham tashkil etadi. Ish joyi shaxsga daromad manbai bo'lishdan tashqari, uning ijtimoiy maqomini, kunlik hayot tartibini, o'zini-o'zi qadrlashini va jamiyat bilan aloqadorligini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Shu sababli mehnatdan ajralish-ya'ni ishsizlik-shaxsning nafaqat iqtisodiy, balki chuqur ruhiy va ijtimoiy inqirozga tushishiga sabab bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonunida ishsizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularni kasb-hunarga qayta tayyorlash va ruhiy-ijtimoiy moslashuviga ko'maklashish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, ishsizlikka qarshi kurashda ko'pincha faqat iqtisodiy va huquqiy choralarga urg'u berilib, uning shaxs ruhiyati hamda oilaviy munosabatlarga ko'rsatadigan chuqur ta'siri yetarlicha e'tibordan chetda qolmoqda.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, zamonaviy mehnat bozorining tez o'zgaruvchanligi, avtomatlashtirish va raqamlashtirish jarayonlari natijasida ishsizlik xavfi ostida

qolish ehtimoli oshib bormoqda, bu esa jamiyatda ruhiy salomatlik muammolarining kengayishiga zamin yaratmoqda. Mazkur maqolaning maqsadi-ishsizlikning shaxs ruhiy salomatligi va oilaviy munosabatlarga ta'sirini ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilish hamda ushbu oqibatlarni yumshatishga qaratilgan ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

1. Ishsizlikning psixologik oqibatlarini o'rganishning tarixiy-nazariy asoslari

Ishsizlikning inson va jamiyatga ta'sirining ruhiy jihatlarini ilmiy o'rganish tarixi XX asrning 20-30-yillarida AQSH va G'arbiy Yevropada yuz bergan Buyuk Depressiya davriga borib taqaladi. Ishsizlikning psixologik jihatlarini xronologik jihatdan birinchi bo'lib tadqiq etgan P.Eyzenberg va P.Lazarsfeld bo'lib, ularning ishlari keyinchalik M.Yaxoda tomonidan rivojlantirilib, ushbu sohada mustaqil tadqiqot paradigmasi shakllandi.

Ushbu yo'nalishdagi eng mashhur va metodologik jihatdan asosli tadqiqotlardan biri Avstriyaning Mariental qishlog'ida o'tkazilgan tadqiqot bo'lib, u yerda mahalliy

to'qimachilik fabrikasining yopilishi natijasida 360 ga yaqin oila ishsiz qolgan edi. Tadqiqotchilar ishsiz qolgan oilalarni ularning ijtimoiy-psixologik holatiga ko'ra to'rt toifaga ajratdilar: kelajakka ishonchini yo'qotmagan "sinmagan" oilalar; imkoniyatlari cheklangan holda mo'tadil turmush tarzini saqlab qolishga harakat qiluvchi "taslim bo'lgan" oilalar; umidsizlik va chorasizlik holatidagi oilalar; hamda tartibsizlik va ichkilikbozlik kabi salbiy holatlar kuzatilgan "loqayd" oilalar. Muhimi shundaki, so'nggi ikki toifa nisbatan kam sonli (5 foizdan kam) bo'lgan bo'lsa-da, ular ishsizlikning eng og'ir ijtimoiy-ruhiy oqibatlarini namoyon etadi.

Adabiyotlarning tahlili. Amerikalik tadqiqotchi E.Uayt Bakke ishsiz qolgan haydovchining xatti-harakati va kechinmalarini uzoq muddat kuzatish orqali o'rganib, ishsizlik holatining bosqichma-bosqich rivojlanishini-dastlabki umid va faol qidiruvdan boshlab, muvaffaqiyatsizliklar ortidan yuzaga keladigan o'z-o'zini ayblash va nihoyat chuqur tushkunlikkacha bo'lgan jarayonni-ilmiy jihatdan tasvirlab berdi. Uning tadqiqotlari natijasida 1940-yilda "Ishsiz fuqarolar" va "Ishsiz ishchi" nomli ikkita asar nashr etildi, bular ishsizlikning shaxs hayotiga ta'sirini o'rganishning uzoq muddatli kuzatuv metodologiyasiga asos soldi. Ishsizlikning shaxsga ta'sirini tavsiflashda o'sha davr mualliflaridan biri Robb keltirgan tasvir alohida diqqatga sazovor: ishsiz qolgan inson o'zining erkinligini yo'qotganini his qiladi, atrofda gilardan yordam so'rashga majbur bo'ladi, natijada o'z ichiga o'ralib qoladi va o'tkir yakkalanish hissini boshdan kechiradi. Tadqiqotchilar ish yo'qotishni stressli hodisa sifatida shaxsdagi mavjud ruhiy zaifliklarni kuchaytiruvchi omil sifatida talqin qilib, buni kislotaning mo'rt narsani yemirishi, ammo qattiq narsaga ta'sir qilmasligi bilan qiyoslaydilar.

Ekzistensial psixologiya nuqtai nazaridan ishsizlik muammosini chuqur tahlil qilgan V.Frankl ishsiz qolgan insonning ichki holatini alohida ta'kidlaydi: shaxs o'zining barcha muvaffaqiyatsizliklarini majburiy ishsizlik faktiga bog'lab, shu orqali o'z hayotidagi vazifalarni hal etishdagi shaxsiy mas'uliyatdan chetlanish uchun asos topadi. Ushbu qarash ishsizlikning nafaqat tashqi, iqtisodiy sabablarga, balki insonning ma'no izlash va erkinlik borasidagi ekzistensial ehtiyojiga bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Bizningcha, aynan shu jihat ishsizlikni faqat moddiy yo'qotish sifatida emas, balki shaxsning o'zligini yo'qotish xavfi sifatida qarashni taqozo etadi.

Tadqiqotchilar Elder va Rokvell ishsiz ota-onalarning bolalari ijtimoiylashuviga ta'sirini o'rganib, bunday oilalarda o'sgan farzandlarda ota-onalar bilan munosabatlarda noaniqlik, kayfiyatning tez o'zgaruvchanligi, otani oila boshlig'i sifatida qabul qilmaslik kabi xususiyatlar shakllanishini, bu holatlar esa keyinchalik voyaga yetgan davrda kuchli "Men" mexanizmining yo'qligi, jamiyatdan begonalashuv va ichkilikbozlikka moyillik singari oqibatlarga olib kelishini aniqladilar.

Tadqiqot metodologiyasi. Shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotlar ishsizlikning har doim ham bir xil salbiy ta'sir ko'rsatmasligini ko'rsatadi. S.Faynman o'tkazgan tadqiqotlarda ayrim shaxslar avvalgi ish joyidan qoniqmagan holatlarda majburiy ishdan bo'shatilgandan so'ng, aksincha, o'zlarini yengil his qilishlari qayd etilgan. Bu holat ishsizlikni faqat stressli hodisa sifatida emas, balki shaxsning ish va bandlikka nisbatan qadriyatli munosabati kontekstida baholash zarurligini ko'rsatadi.

Ishsizlik darajasi bilan aholi ruhiy salomatligi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rgangan M.Brenner AQShning 1910-1970-yillar oralig'idagi statistik ma'lumotlari asosida ish bilan bandlik susaygan davrlarda ruhiy kasalliklar bilan shifoxonaga yotqizilganlar sonining ortishini, shuningdek, yurak-qon tomir kasalliklari, jigar sirrozi va o'lim ko'rsatkichlarining bandlik

darajasi bilan bog'liqligini isbotladi. Muhimi, bunday salbiy oqibatlar ishsiz qolgan davrdan uch-to'rt yil o'tgach namoyon bo'lishi aniqlangan, bu esa ishsizlikning uzoq muddatli, "kechiktirilgan" ta'sir mexanizmiga ega ekanligidan dalolat beradi.

Zamonaviy tadqiqotlar ham ushbu bog'liqlikni tasdiqlaydi. Xususan, T.Bleykli va uning hamkasblari tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda ishsizlik va o'z joniga qasd qilish o'rtasidagi sabab-oqibat bog'liqligiga oid dalillar keltirilgan, bu esa ishsizlikning eng og'ir ijtimoiy-ruhiy oqibatlaridan biri sifatida davlat va jamiyat e'tiborini talab qilishini ko'rsatadi.

Ishsizlikning ijtimoiy oqibatlarini umumlashtirilgan holda tahlil qilinganda, quyidagi asosiy yo'nalishlarni ajratish mumkin: birinchidan, u ijtimoiy notenglikning kuchayishiga, kambag'allik darajasining oshishiga olib keladi; ikkinchidan, ayniqsa yoshlar orasida noqonuniy faoliyatga moyillikni kuchaytiradi; uchinchi, stress va yurak-qon tomir kasalliklari ko'rinishida ruhiy va jismoniy salomatlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi; to'rtinchidan, oilaviy munosabatlarni izdan chiqarib, ajrimlar va nizolar sonini oshiradi; beshinchidan, davlat budjetiga ijtimoiy dasturlar orqali qo'shimcha yuk tushiradi; oltinchidan, shaxsning kasbiy malaka va ko'nikmalarini yo'qotilishiga sabab bo'ladi; yettinchi, shaxsni ijtimoiy aloqalardan uzoqlashtirib, uning shaxsiy rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

Tahlil va natijalar. G'arbiy Yevropada 2005-yilda amalga oshirilgan "Ijtimoiy kuzatish va bandlikni qo'llab-quvvatlash" loyihasi doirasida beshta mamlakat (Gollandiya, Belgiya, Germaniya, Italiya, Ispaniya) tajribasi umumlashtirilib, ish joyini yo'qotish xavfi ostidagi shaxslarga maxsus maslahatlashuv xizmatlarini ko'rsatish orqali ularning mehnat bozoriga qaytish jarayonini yengillashtirish mumkinligi isbotlandi. Ushbu tajriba shuni ko'rsatadiki, ishsizlikning ruhiy oqibatlarini yumshatishda oldindan profilaktik yondashuv-yo'ni ish yo'qotish xavfi paydo bo'lishi bilanoq psixologik-maslahat xizmatlarini ishga tushirish-yuqori samara beradi.

Yuqorida keltirilgan xorijiy tajriba va nazariy tahlillar Yangi O'zbekiston sharoitida ishsizlikka qarshi kurash strategiyasini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Respublikada bandlik xizmatlari va mahalla instituti orqali ishsiz fuqarolarga ko'rsatilayotgan yordam asosan moddiy va kasbiy yo'naltirish xarakteriga ega bo'lib, ularning ruhiy-ijtimoiy moslashuviga alohida e'tibor qaratilishi hozircha yetarli darajada tizimlashtirilmagan.

Bizningcha, ishsizlikning ijtimoiy-psixologik oqibatlarini samarali yumshatish uchun quyidagi yo'nalishlarda ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- bandlikka ko'maklashish markazlari tizimida psixologik maslahat xizmatini institutsionallashtirish, ya'ni har bir markazda ishsiz fuqarolarga ruhiy-ijtimoiy yordam ko'rsatuvchi mutaxassislar shartini joriy etish;

- ish joyini yo'qotish xavfi yuqori bo'lgan tarmoqlarda profilaktik maslahatlashuv dasturlarini oldindan ishga tushirish, ya'ni G'arbiy Yevropa tajribasidagi kabi "oldini olish" tamoyiliga asoslangan yondashuvni joriy etish;

- uzoq muddatli ishsizlar va ularning oila a'zolari uchun mahalla darajasida ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash guruhlarini tashkil etish;

- yoshlar va yangi bitiruvchilar orasida ishsizlikning ekzistensial oqibatlarining oldini olish maqsadida ta'lim muassasalarida kasbiy yo'naltirish va psixologik tayyorgarlik darslarini kuchaytirish;

- ishsizlik va ruhiy salomatlik o'rtasidagi bog'liqlikni respublika miqyosida statistik jihatdan muntazam kuzatib borish va bu borada milliy tadqiqotlar bazasini shakllantirish.

Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi nafaqat ishsizlikning iqtisodiy oqibatlarini, balki uning shaxs va oila darajasidagi chuqur ruhiy ta'sirlarini ham kamaytirishga xizmat qiladi, bu esa Yangi O'zbekistonda insonparvar va ijtimoiy adolatga asoslangan jamiyat qurish yo'lidagi muhim qadam bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa. O'tkazilgan tahlil ishsizlikning shaxs va jamiyat hayotiga ta'siri sof iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan chegaralanmasligini, balki chuqur ruhiy-ekzistensial mazmunga ega ekanligini ko'rsatdi. Buyuk Depressiya davridan boshlab shakllangan ilmiy tadqiqotlar an'anasi ishsizlikning shaxs o'zini anglashi, oilaviy munosabatlar va

jamiyatdagi ijtimoiy aloqadorlikka ko'rsatadigan salbiy ta'sirini izchil tarzda isbotlab kelmoqda.

Yangi O'zbekiston sharoitida ishsizlikka qarshi kurash siyosatini takomillashtirishda nafaqat iqtisodiy va huquqiy, balki ijtimoiy-psixologik yondashuvlarni ham tizimli tarzda joriy etish zarur. Bandlikka ko'maklashish tizimida psixologik xizmatlarni institutsionallashtirish, profilaktik yondashuvni kuchaytirish va mahalla darajasida ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni rivojlantirish ishsizlikning nafaqat iqtisodiy, balki chuqur insoniy oqibatlarini bartaraf etishning ilmiy asoslangan yo'li hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. "Aholi bandligi to'g'risida". 2020 yil, 20 oktyabr, O'RQ-642-son.
2. Eisenberg P., Lazarsfeld P.F. The psychological effects of unemployment // *Psychological Bulletin*. – 1938. – P. 358.
3. O'Brien G.E. *Psychology of work and unemployment*. – New York: Wiley & Sons, 1986. – P. 310, 315.
4. Bakke E.W. *Citizens Without Work*. – New Haven: Yale University Press, 1940; *The Unemployed Worker: A Study of the Task of Making a Living Without a Job*. – New Haven: Yale University Press, 1940.
5. Beales H.L., Lambert R.S. *Memoirs of the unemployed*. – Yorkshire: The Scholar Press, 1973. – P. 274–286.
6. Frankl V. *Chelovek v poiskax smysla*. – M.: Progress, 1990.
7. Fineman S. *White Collar Unemployment*. – Chichester: Wiley, 1983.
8. Brenner M.H. *Mental Illness and Economy*. – Cambridge, Mass.: Harvard University Press, 1973.
9. Blakely T., Collings S., Atkinson J. Unemployment and suicide. Evidence for a causal association? // *Journal of Epidemiology and Community Health*. – 2023. – Vol. 57(8). – P. 594–600.
10. Kieselbach T. Social convoy in occupational transitions: Recommendations for a European Framework in the context of enterprise restructuring // 26th International Congress of Applied Psychology. Abstracts. – Athens, Greece, 2006. – P. 292.
11. Elder G.H., Rockwell R.C. Economic depression and postwar opportunity in men's lives: a study of life patterns and health // *Research in Community and Mental Health*. – Greenwich, Connect. Press, 1979. – Vol. 1. – P. 249–303.
12. Demin A.N. *Teoreticheskie podxody k probleme bezrabotitsy v zarubezhnoy psixologii* // *Psixologicheskiy zhurnal*. – 2005. – №4. – S. 20–29.
13. Muxtarov U.M. *Yangi O'zbekiston sharoitida ishsizlik muammosi va uni bartaraf etishning ijtimoiy omillari: falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi*. – Andijon, 2025.